



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

TASAVVUF VAKILLARINING IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTGA TA'SIRI: MAHDUMI A'ZAM VA DAHBEDIYLAR MISOLIDA

Kandaxarov Anvarjon Xasanovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, (PhD), dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada XVI–XVIII asrlarda Buxoro xonligi ijtimoiy-siyosiy hayotida tasavvuf vakillarining, xususan, Mahdumi A'zam Dahbediy va uning avlodlari faoliyati tahlil qilingan. Tadqiqotda tasavvuf namoyandalarning davlat boshqaruvi, hukmdorlar siyosati va jamiyat barqarorligiga ko'rsatgan ta'sir mexanizmlari manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, dahbediylar sulolasining nafaqat diniy-ma'rifiy, balki siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, hukmdorlar bilan munosabatlari hamda turli hududlardagi hokimiyat tizimida tutgan o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, Mahdumi A'zam, Dahbediylar, Buxoro xonligi, Naqshbandiya tariqati, ijtimoiy-siyosiy hayot, shayxlar, davlat boshqaruvi, siyosiy ta'sir.

ВЛИЯНИЕ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ СУФИЗМА НА ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ: НА ПРИМЕРЕ МАХДУМИ АЗАМА И ДАХБЕДИЙЦЕВ

Кандахаров Анваржон Хасанович

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, (PhD), доцент

Аннотация

В данной статье анализируется роль представителей суфизма в общественно-политической жизни Бухарского ханства в XVI–XVIII вв., в частности деятельность Махдumi Азама Дахбеди и его потомков. На основе исторических источников раскрываются механизмы влияния суфийских деятелей на государственное управление, политику правителей и обеспечение общественной стабильности. Также освещается участие дахбедийской династии не только в религиозно-просветительской сфере, но и в политических процессах, их взаимоотношения с правителями, а также их место в системе власти различных регионов.

Ключевые слова: суфизм, Махдumi Азам, дахбедийцы, Бухарское ханство, нақшбандийский тарикат, общественно-политическая жизнь, шейхи, государственное управление, политическое влияние.

THE INFLUENCE OF SUFI REPRESENTATIVES ON SOCIO-POLITICAL LIFE: THE CASE OF MAKHDUM-I AZAM AND THE DAHBEDIY LINEAGE

Kandaxarov Anvarjon Xasanovich

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article examines the role of Sufi representatives in the socio-political life of the Bukhara Khanate in the 16th–18th centuries, with particular focus on the activities of Makhdum-i Azam Dahbedi and his descendants. Drawing on historical sources, the study analyzes the mechanisms through which Sufi figures influenced state governance, the policies of rulers, and the maintenance of social stability. It also highlights the participation of the Dahbediy lineage not only in religious and educational spheres but also in political processes, including their relationships with rulers and their position within regional power structures.

Keywords: Sufism, Makhdum-i Azam, Dahbediy lineage, Bukhara Khanate, Naqshbandi order, socio-political life, sheikhs, state governance, political influence, Central Asia.

O'rta asrlar davlatchiligi uchun xos bo'lgan diniy ulamolarning siyosatga kuchli ta'siri XVI asrda ham davom etdi va bu holat, ayniqsa, Shayx Xudoydod Valiy, Qosim Shayx Azizon, Mahdumi A'zam Dahbediy, Mir Arab Yamaniy, Hazrat Xoja Xoshim va Jo'ybor shayxlari faoliyatida yaqqol ko'zga tashlandi. Abdullaxon II (1557–1598) hukmdorligi Movarounnahr o'lkasida siyosiy yaxlitlikni saqlab qolishga qaratilgan oxirgi urinish bo'ldi va ana shunday siyosiy tahlikali davrda Buxoro xonligi hududida yashab faoliyat yuritgan aksariyat shayxlar o'z qarashlarida bir maqsadni, ya'ni yurt tinchligi va

osoyishtaligini, xalqning baxt-u saodatini hamda zamona hukmdorlarini insof va adolatga chorlashni ifoda qildilar. Shayx Xudoydodning Mirzo Bobur va Muhammad Shayboniyxon o'rtasidagi siyosiy munosabatlarga aralashuvi hamda 1512-yilgi to'qnashuvlarda Ubaydullaxonni qo'llab-quvvatlashi esa uning davlatchiligimiz tarixida tutgan muhim o'rnini anglatadi.

Tadqiq etilayotgan davrda mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida nufuzli ta'sirga ega bo'lgan yana bir naqshbandiya tariqati vakillaridan biri Mahdumi A'zam Dahbediy (Kosoniy) bo'lib, u XV–XVI asrlarda yashab o'tgan yirik mutasavvif, naqshbandiya tariqatining nazariyotchisi va davomchisi, piri murshid, faylasuf va axloqshunos olim, faqih hamda ta'sir doirasi kuchli siyosiy arbob, davlat va jamiyat miqyosidagi mojarolarni yechuvchi konfliktolog mutafakkir bo'lgan. Manbalarda aytilishicha, Mahdumi A'zam kuchli ruhiy ta'sir quvvatiga ega bo'lgan fenomenal inson bo'lgan. U ayni paytda naqshbandiya arkonlariga muvofiq ziroatchilik, ya'ni dehqonchilik hunarini egallab, bu sohada alohida iste'dod sohibi bo'lgan ziroatchi sifatida yangicha meva va poliz navlarini yetishtirgan bog'bon sifatida ham nom qozongan.

Mahdumi A'zam 1461-yili (hijriy 866-y.) Farg'onaning qadimiy poytaxti bo'lgan Koson shahrining Xonaqoh mahallasida Sayid Jaloliddin ibn Jamoliddin Kosoniy oilasida tug'ilgan [1; 4-b.]. Mutasavvifning to'liq ismi-sharifi Sayyid Ahmad ibn Mavlono Jaloliddin Xojagi Kosoniy Mahdumi A'zam (1461–1542)dir. Bu ismdagi "Sayyid" so'zi mutafakkirning payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) avlodidan ekanligiga ishora qiladi. Ahmad uning ismi, ibn Mavlono Jaloliddin – Mavlono Jaloliddinning o'g'li ekanligini, "Xojagi" so'zi uning xojagon tariqatiga mansubligini, Kosoniy esa mutafakkirning tug'ilgan joyiga qarab aytilgan nisbasini anglatadi. "Mahdumi A'zam" esa uning ustozni Mavlono Muhammad Qozi tomonidan berilgan taxallus bo'lib, "ulug' maxdum", "ustozlariga sadoqatli shogird" ma'nolarini bildiradi. Mahdumi A'zam islom olamida o'tgan uch buyuk A'zamdand biri ekanligiga ham ishoradir. Ular: Imomi A'zam, G'avsul A'zam va Mahdumi A'zam [2; 6-b.].

Manbalarda keltirilishicha, XIV asrning ulug' mashoyixlaridan Xoja Ahror Vali va u kishining xalifalari Mavlono Muhammad Qozi vafot etgach, naqshbandiya silsila sulukining rahbari etib Mahdumi A'zam saylanadi. Ushbu sulukka, ya'ni tariqatga o'sha davrdan boshlab XX asr boshlariga qadar ul zotning avlodlari vaqti-vaqti bilan rahbarlik qilib kelishgan [3; 16-b.]. Bu kabi holat shunisi bilan e'tiborliki, bir ulug' silsila sulukiga bir oiladan, bir tabaqadan chiqqan bir necha vakilning ketma-ket rahbarlik qilishi tasavvuf tariqatlari tarixida kam uchraydigan jarayon hisoblanadi.

Sayid Ahmad – Mahdumi A'zam, avvalo, maktabda savod chiqaribgina qolmay, otasining xohishiga binoan dehqonchilik bilan ham mashg'ul bo'ladi. Sayid Ahmadxo'ja o'zining ilk ustozni bo'lmish Mavlono Mir Sayid Ali qoshida ilmi sarf va nahvni (arab tili morfologiyasi va sintaksisini) o'rganadi. Shundan so'ng Sayid Ahmadxo'ja tasavvuf ilmiga rag'bat sezib, bu borada ham bilimni oshirish va ko'ngil savollariga javob topish uchun ustozni Mavlono Mir Sayid Alining maslahati bilan Xoja Ahrorning Toshkentda yashayotgan eng yaqin shogirdi va xalifasi bo'lgan Mavlono Muhammad Qozi huzuriga borib, uning muridi va sevimli shogirdiga aylanadi. Manbalar tahliliga asosanib aytish mumkinki, Mahdumi A'zam Dahbediy XVI asr naqshbandiya tariqati tarixida buyuk nazariyotchi sifatida gavdalanadi. Uning risolalarida muallifning shaxsiy ijtimoiy va siyosiy faolligi bilan naqshbandiya tariqatining qayta tiklanishi va rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan namoyon bo'ladi.

Bu sulukka o'sha davrdan boshlab XX asr boshlariga qadar, ya'ni parokandalikka uchragunicha, uning avlodi namoyandalari vaqti-vaqti bilan rahbarlik qilib kelishgan. Shunisi qiziqki, naqshbandiyadek ulug' bir silsila sulukiga bir oiladan chiqqan bir necha vakilning uzoq vaqt davomida rahbarlik qilishi tasavvuf tarixida kam uchraydigan hol hisoblanadi. "Sharafnomai shohiy" asarining dalolat berishicha, Mahdumi A'zam o'z zamonasida g'oyat buyuk va eng yuqori martabali kishilardan biri bo'lib, ul zotdan turli karomatlar va g'ayritabiyy holatlar zohir bo'lgan. Movarounnahrning barcha shaharlarida turli tabaqa vakillari o'zlarining irodat boshini uning inobat halqasiga tutganlar. Sodiqlik toliblardan oltmish kishi ul zotning tarbiya etagida kamol topganligi sababli uni "piri shasti" (oltmish avliyoni tarbiyalagan pir) deb ataganlar [13; 84-b.].

Tarixchi Sayid Roqim: "Mahdumi A'zam muridlaridan bir qancha nomdor avliyolar ul zot maqomotlarida nomlari mastur va mazkur keltirilgan. Hazrati Mahdumiyning avlod va ajdodlari har bir shaharda piri irshodlik masnadida o'tirib, xaloyiqni hidoyatga boshqarishgan. Jahon ahliga ravshanki, ul zotning nur taratishiga bayonning ehtiyoji yo'qdir. Bu haqir (muallif Sayid Roqim) ul xurshedi anvor haqida nima ham yoza olardi, ul zotning vasflari taqdir va tahrir haddidan tashqaridir", deb yozgan. Sayid Roqimning yuqoridagi bahosini Abu Tohirxo'ja Samarqandiy o'z yozishmalarida tasdiqlab, Mahdumi A'zam va u haqidagi maqomot kitobiga shunday baho beradi: "Hazrati Mahdumi A'zam janoblarning

maqomot, holat va karomatlar shundayki, bu nodonning (ya'ni Abu Tohirxo'janing) qalami uni tahrir va taqdir qilishga o'zlashtiradi. Ul kishining maqomlari haqida mashhur bir kitob bo'lib, unda ham ul zotning holatlari qisqa yozilgan" [4; 56-b.].

"Tarixi Xumuliy" asarida ham Mahdumi A'zam shaxsiyati haqida so'z yuritilib, hatto XVIII asr oxirida ham u kishining obro'-e'tibori xalq orasida yuksak darajada bo'lganligini asardan keltirilgan quyidagi ma'lumot orqali anglash mumkin: "Shu paytlarda Samarqand shahrida odam qolmagan bo'lsa ham (Amir Shohmurod Samarqand shahriga borgan vaqtda – M.M.), unga tobe bo'lgan sharaflilar maskan Dahbed mavzesida ko'p kishilar turli shahar jamoalaridan kelib o'rnatilib qolgan edilar. Bu ko'pchilik kishilarning bu joyga kelishiga sabab Qutbi Mukarram, Mavlono Xoja – Mahdumi A'zam quddisa sirruhu xonaqohlariga kelib, Allohga toat-ibodat qilish niyati bilan qolib ketgan, asli nasabi pok obidlar avlodidan tarqalgan zurriyotlardir. Ular shu joyni o'zlariga vatan tutganlar. Bu ulug' va nasabli zotlardan qolgan avlod shu joyda uylanib, bola-chaqali bo'lib, turli kasb-korlarni o'rganib yashab kellar edilar" [5; 124-b.].

Aslida tasavvufning ilk tariqat va maktablarida barcha hukmdorlar bilan munosabatlar batamom inkor qilingan. Biroq tasavvuf tariqatlarining shuhrat topishi bilan ularning siyosatga aralashmasligiga imkon qolmadi. Xojagon-naqshbandiya tariqatining asoschisi Abdulxoliq G'ijduvoni (vaf. 1180–1220-y.) hukmdorlarning doiralar bilan har qanday munosabatlarni inkor etib, uning nazarida bunday aloqalar so'fiy dunyo ishlariga shavq-u zavqning paydo bo'lishiga olib kelardi. Unga yaqin bo'lgan izdoshlari ham "sultonlar ishlariga aralashish"ga xohish bildirmaganlar [6; 6-b.]. Tadqiq etilayotgan davrda, ya'ni XVI–XVIII asrlarga kelib esa jamiyatdagi notinchliklar, adolatsizliklar va ma'naviy tushkunliklar natijasida tasavvuf vakillari bevosita va bilvosita ushbu jarayonlarda ishtirok etgan hamda bu salbiy holatlarni qisman bo'lsa-da bartaraf etishga muvaffaq bo'lgan, deb xulosa qilish mumkin.

Mahdumi A'zamga Movarounnahr, Xuroson, Hindiston va Sharqiy Turkiston davlatlarining hukmdorlari, sultonlari va beklari ixlos qo'ygan hamda irodalar bildirib, inobat etganlar. Ular orasida eng mashhurlari Ubaydullaxon, Bobur Mirzo, Iskandarxon, Jonibek Sulton kabilar edi. Mahdumi A'zam xalq manfaati yo'lida davlat va siyosat ishlariga aralashishni o'zining yana bir ruhoni ustoz – "ikkinchi Naqshband" sharaflilar nomini olgan Xoja Ubaydulloh Ahrori Valiydan yetib kelgan ma'naviy nisbat deb bilar, hukmdorlarning o'zaro urushlarini to'xtatish uchun qat'iy faoliyat olib borar, xalq farovonligi yo'lida hukmdorlardan imkon qadar foydalanishga harakat qilardi. Ana shunday faoliyatlaridan biri – hukmdorlarni ko'nglini yumshatadigan ilmiy-adabiy bahslarga chorlash, ularni siyosiy fitnalar va urushlardan chalg'itish hamda uzoqlashtirish yo'llarini izlash edi.

Yana shuni ham alohida ta'kidlab o'tish o'rinliki, 1709-yilda Farg'ona mulking Buxoro xonligidan ajralib, alohida mustaqil boshqaruvni qo'lga olishida va natijada O'rta Osiyo xaritasida yangi davlat – Qo'qon xonligining vujudga kelishida ham kelib chiqishi Mahdumi A'zam Dahbediyga borib ulanadigan Chodak xo'jalarining faoliyatini misol qilib keltirishning o'zi bu davr jamiyat hayotida tasavvuf vakillarining ta'siri naqadar katta ekanligini anglatadi.

Mahdumi A'zamning avlodlari keyingi davrlarda ham siyosatga ta'sir ko'rsatish faoliyatini davom ettirdilar. "Tuhfat ul-xoniy" ("Tarixi Rahimxoniy") asarida yozilishicha [7; 43-b.], Buxoro amirlari – mang'itlar sulolasining asoschisi Muhammad Rahimxonning taxtga o'tirish marosimiga, eng avvalo, Mahdumi A'zam, Said Ota, Xoja Islom Jo'yboriy va Xoja Ahror avlodidan bo'lganlar taklif etilgan [8; 104-b.].

Yana shu manbada yozilishicha, Buxoro xonligining oliy diniy lavozimlari quyidagicha taqsimlangan:

1. "O'rini shohnishini" (shoh o'rinbosari), ya'ni oliy diniy lavozimga Mahdumi A'zam avlodidan bo'lgan Isoxo'ja tayinlangan;
2. Buxoro davlati shayxulislomligiga Xoja Islom Jo'yboriy (Mahdumi A'zamning birinchi xalifasi) avlodidan Nasrulloxo'ja tayinlangan;
3. Naqiblik lavozimiga Said Ota avlodidan Muhammadxo'ja tayinlangan;
4. Qozi kalon lavozimiga mirakon urug'idan Nizomiddinxo'ja tayinlangan (keyinroq uni Davlat qo'shbegi bilan birga Amiri Ma'sum – Shohmurod qatl ettirgan);
5. Samarqand shahri va viloyatining shayxulislomlik lavozimiga esa Xoja Ahror avlodidan bo'lgan Shahobiddinxo'ja tayinlangan.

Ma'lum bo'lishicha, hokimiyat va hukmdorlar sulolasi qancha o'zgarmasin, diniy-huquqiy lavozimlarning bu tarzda tuzilishi o'zgarmasdan davom etgan [9; 118-b.].

Mahdumi A'zam Dahbediy to'g'risida ma'lumot beruvchi manbalarning guvohlik berishicha, temuriylardan Zahiriddin Muhammad Bobur ham Mahdumi A'zamni o'ziga pir deb bilgan ekan.

Shuningdek, Bobur Mirzo o'zining "Boburnoma" asarida Mahdumi A'zamning amakivachchasi bo'lgan Xoja Mavlono Qozini (Xoja Abdullohoni) ham o'ziga pir-u ustoz hisoblaganligini yozadi. Bobur Mirzo 1499-yilda Samarqandni egallagach, uning dushmanlari ona shahri Andijonni ishg'ol qilib, piri Mavlono Qozini qatl ettiradilar. Buning sababi shundaki, Mavlono Qozi Bobur Mirzoning nafaqat piri, balki o'zining 18 ming qo'y va molini Bobur Mirzo askarlariga ulashib, uning hukmdorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlab turgan hamda unga maslahatgo'y bo'lgan edi. Shundan so'ng Bobur Mirzo Mahdumi A'zamni o'ziga bir tutib, uning ko'rsatmalariga amal qilgan [10; 49-b.].

Mahdumi A'zam adolatni qadrlagan va unga xiyonat qiluvchilarga nisbatan shafqatsiz bo'lgan. Ayni paytda bandalarga ozor yetkazmaslik, ayniqsa, ularning dilini og'ritmaslik lozim deb hisoblagan. Hazrat miskinlarni qo'llab-quvvatlashga intilar, berahm amaldorlarga dakki berar, ularni doimo insofga chaqirar edi. U hayotda soxtakorlikni yoqtirmas, yolg'onchilikni kechirmasdi. Bu borada "bandani aldasa ham, Haqni alday olmaydi", deb aldamchilardan norozi bo'lardi. Mahdumi A'zam xasislikni yoqtirmagan va tejamkorlikni rag'batlantirgan. Uning fikricha, inson tejamkorlik bilan xasislikni farqlay olishi lozim, chunki bu xususiyatlar bir-biridan keskin farq qiladi. Tejamkorlik – zarur joyda ortiqcha sarf-xarajat qilib, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikdir. Xasislik esa zarur joyga tegishli ulushni bermay, qizg'ancholik bilan sifatga putur yetkazishdir. Bu xususiyatlardan biri sifatga ijobiy, ikkinchisi esa salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sayyid Ahmadni XVI asr boshlarida Shayboniy hukmdorlaridan biri, Samarqand hokimi Jonibek Sulton Shayboniylar poytaxtiga taklif qiladi, chunki Mahdumi A'zamning favqulodda iste'dodi, tasavvuf va fiqh sohasidagi el orasida orttirgan shuhrati islom diniga kuchli e'tiqod qo'ygan shayboniylar qulog'iga ham yetgan edi [11; 18-b.]. Jonibek Sulton 1503–1509-yillarda Axsida hokimlik qilgan. U Mavlono Jaloliddin va uning o'g'li Sayyid Ahmadga qo'l berib, ularni pir tutgan edi. Jonibek Sulton 1510-yili Miyonkolga hokim etib tayinlanadi va u Mahdumi A'zamni ham pir sifatida o'zi bilan olib ketish uchun otasidan izn so'raydi. Sultonning taklifi yerda qolmaydi va shu sababli Mahdumi A'zam Samarqandga boradi. U yerda Jonibek Sulton Mahdumi A'zanga Miyonkol orolining eng serhosil va sersuv joyidan yer ajratib beradi. Miyonkol oroli Zarafshon daryosining ikkiga ajralib, yana qo'shilishidan hosil bo'lgan oroldir. Bu yerda Mahdumi A'zam dehqonchilik (ziroatchilik) va bog'dorchilik bilan shug'ullangan. Rivoyatlarga ko'ra, u bu joyga dastlab ko'chib kelgan yili o'nta tol daraxti ekan va shundan keyin bu mavze Dahbed ("o'nta tol") deb atalgan [12; 6-b.].

1514–1516-yillarda Mahdumi A'zam Shayboniylar davlatining poytaxti Karmanada yashaydi va bu davrdagi siyosiy jarayonlarda faol qatnashib, tinchlik va osoyishtalikni saqlashga, hukmdorlarni bir-biri bilan yarashtirishga intiladi. Shayboniy Ubaydullaxon Mahdumi A'zamni o'ziga ma'naviy pir hisoblab, uning huzurida muridlik odobini o'rniga qo'ygan va ixlos bilan piridan ruhiy madad olgan. Mahdumi A'zam Ubaydullaxonning ruboiy va g'azallariga sharhlar yozgan. Shu asosda pir o'z muridining sharafiga "Risolai sharhi ruboiyoti Ubaydiy" asarini yaratgan. Buxoro xoni Iskandarxon ham Mahdumi A'zanga qo'l berib murid bo'lgan va farzandi tug'ilganda unga ism qo'yib berishni piridan iltimos qilgan [13; 89-b.]. Mahdumi A'zam bu chaqaloqqa Abdulla deb ism qo'yadi hamda uning tolei baland bo'lishini, hukmronligi davrida ilm-ma'rifat ravnaq topishini bashorat qiladi. Haqiqatdan ham Abdullaxon davrida Mahdumi A'zamning bashorati ro'yobga chiqadi.

Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy" asarida keltirilishicha, Buxoro podshosi Subhonqulixon (1680–1702) o'g'il farzand ko'rganida unga ism qo'yish uchun Mahdumi A'zam avlodlaridan Hazrat Nasriddinxo'ja ibn Abdulg'afforxo'ja huzuriga odam yuboradi. Ul zot Qur'oni Karim sahifalarini ochib o'qiy boshlaydi va "A'uzu billohi minash-shaytonir rojim. Rabbi-j'alni muqimas-soloti va min zurriyati", ya'ni "Parvardigoro! Meni va zurriyotimni namozxon qilgin" kalimasiga ko'zi tushadi hamda chaqaloqqa Muqimxon (1697–1704) deb ism qo'yadi [14; 118-b.]. Balx hokimi bo'lgan ushbu hukmdor ham tarixda katta iz qoldirgan.

Mahdumi A'zam Dahbediylarning siyosiy faoliyati tahlil qilinganda, tarixiy manbalarda bu tabaqa vakillari bir qancha podsholiklarni boshqarganligi e'tirof etilgan. Jumladan, Sulton Burhoniddin Qilichning Farg'ona podshosi bo'lganligi va 1710-yillarda Buxoro xonligidan ajralib chiqqan Farg'ona mulki, keyinchalik esa Qo'qon xonligi davlatining asoschilari bo'lgan Chodak xo'jalarining ham Dahbediylar avlodidan ekanligi ma'lum [15; 199-b.]. Tarixchi Muhammad Sodiq Qoshg'ariy va rus sharqshunos olimi Vasily Vladimirovich Bartold ma'lumotlariga ko'ra, XVIII asrda Sharqiy Turkistonda podsholik Chig'atoy urug'idan bo'lgan, Mahdumi A'zam avlodlariga mansub Ofoqxo'ja qo'liga o'tgan [16; 175-b.]. XVIII asr oxirlarida hukmronlik qilgan Samarqand hokimlari Sharofiddin Abu Ibrohim va Sayyid Muhammad Aminlar ham Mahdumi A'zam avlodidan bo'lgan [3; 18-b.].

Shuningdek, Abdurahmon Mustajirning "Ro'znomai safari Iskandarko'l" nomli kitobida

aytilishicha, Tojikistonning Masjoh, Urmetan va Fulgʻor hududlari hukmdori Rahimshohdan xalq norozi boʻlib, uni taxtdan agʻdaradi. Soʻngra Dahbediy xoʻjalar silsilasidan boʻlgan yosh yigit (Poshshaxoʻja nomi bilan tarixda qolgan) podshoh etib tayinlanadi. Soʻnggi maʼlumotlarga qaraganda, XX asrning 40-yillarida Sharqiy Turkistonda ushbu tabaqadan boʻlgan Alixontoʻra Sogʻuniy boshchiligida islom davlati tashkil topgan boʻlib, u mashhur sarkarda sifatida ham tanilgan.

Xulosa qilib aytganda, Dahbediy ulamolar Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy hayotiga hamda davrning ilmiy-maʼrifiy taraqqiyotiga sezilarli taʼsir koʻrsatganlar. Ularning faoliyati oʻsha davrda xonlikda vujudga kelgan ijtimoiy-diniy va siyosiy vaziyatning barqarorlashuvida muhim ahamiyat kasb etgan. Keyingi davrlarda, xususan, mangʻitlar davrida faoliyat olib borgan Musoxon Dahbediyning oʻzi siyosiy jarayonlarga bevosita aralashmagan boʻlsa-da, katta mulkdor sifatida hamda koʻp sonli muridlari va izdoshlari orqali jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotiga faol taʼsir koʻrsatishi uchun qulay sharoit yaratgani maʼlum boʻldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Nuriddinov A. Maxdumi Aʼzam Kosoniy. — T.: Fan, 2008.
2. Toʻraev B. Mahdumi Aʼzam hayoti va ilmiy-maʼnaviy merosi. — Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2020.
3. Kattaev K. Mahdumi Aʼzam va Dahbed. — Samarqand: Soʻgʻdiyona, 1994.
4. Abu Tohirxoʻja. Samariya // Meros turkumida. — Toshkent: Kamalak, 1991.
5. Muhiddinova M. XVIII–XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligidagi tarixiy jarayonlar (Tarixi Xumuliy asari asosida): Tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Samarqand, 2024. — B. 33.
6. Бабаджанова Б.М. Политическая деятельность шейхов Накшбандия в Мавераннахре (I пол. XVI в.): автореф. дис. ... канд. ист. наук. — Ташкент: ИБ АН РУз, 1996.
7. Muhammadvafoi Karminagi. Toʻhfatul-xoni / muqaddima, tahiyai matn, nusxabadal, taʼliqot va fehristhoi ʻQamshed ʻQoʻrazoda va Nurullo Gʻiyosov. — Xuchand: Nuri maʼrifat, 2018.
8. Saidqulov T. Ocherki istoriografii narodov Sredney Azii. — Toshkent: Oʻqituvchi, 1992.
9. Axmedov B. Istoriko-geograficheskaya literatura Sredney Azii XVI–XVIII vv. Pismennye istochniki. — Tashkent, 1985.
10. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. — Toshkent: Yulduzcha, 1989.
11. Valixoʻjaev B. Maxdumi Aʼzam Dahbediy // Valixoʻjaev B., Zohidiy A. Maxdumi Aʼzam (maqolalar toʻplami). — T.: Navroʻz, 1993.
12. Toʻraev B. Mahdumi Aʼzam hayoti va ilmiy-maʼnaviy merosi. — Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2020.
13. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Sharafnomai shohiy (Abdullanoma). Birinchi kitob. — Toshkent: Sharq, 1999.
14. Muxammed Yusuf Munshi. Mukim-xanskaya istoriya / perevod iz tadjikskogo i predislovie prof. A.A. Semyonov. — Tashkent: AN UzSSR, 1956.
15. Zamonov A., Egamberdiev A. Oʻzbekiston tarixi. 4-qism: oliy taʼlim bakalavriyat yoʻnalishlari uchun darslik. — Toshkent: Bayoz, 2022.
16. Бартольд В.В. Сочинения. Ч. II. — Москва: Наука, 1964.